

TVCHDPI talabalari - Qutbiddinova Nafisa, Ismoilov Azizbek

qutbiddinovnafisa@gmail.com

azizbekismoilova153@gmail.com

TVCHDPI o‘qituvchisi - Adambayev Umidbek Xaitbayevich

umidbekadambaye@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi kunda jamiyatimizda milliy va diniy an’analarning axloqiy tarbiyadagi tutgan o‘rni va amaliy ahamiyati, o‘zbek xalqining azaliy qadiriyatlari to‘g‘risida fikr mulohazalar yuritilgan .

Kalit so‘zlar: jamiyat, din, an’ana, qadiryat, axloq.

ABSTRACT

This article discusses the role and practical significance of national and religious traditions in moral education in our society today, the age-old values of the Uzbek people.

Barcha xalqlarning o‘ziga xos milliy an’analari mavjud bo‘lgani singari o‘zbek milliy axloqiy tarbiyasi ham ma’lum odob va e’tiqod, ishonch va mehr – muhabbatning majmuasi hisoblanadi. Insonning axloqiy tarbiyasi o‘zini qanday tuta bilishida namoyon bo‘ladi.

Axloq — jamiyat, zamon, ba’zan insoniyat tarixi uchun namuna bo‘lgan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisa[1].

Ilgari kasb o‘rganish tarbiyaning uzviy bo‘g‘ini hisoblangan, yoshlar makatabni bitirganidan so‘ng bir kasbni (masalan, o‘g‘il bola ota kasb bo‘lgan kulolchilik, temirchilik, bog‘dorchilik, dehqonchilik va boshqa kasblar, qizlar ona

kasbni tikuvchilik, to‘quvchilik, yoki boshqa bir kasbni) egallash an’anasi bo‘lgan. Ko‘rinib turibtiki, kasb o‘rganish tarbiyaning uzviy qismi hisoblangan.

Qadimdan aytib kelinadigan salom, o‘zbekning “Assalomu alaykum” kalomida bir olam ma’no bor. Bilamizki salom berish ozmi – ko‘pmi boshqa millatlarda ham mavjud. Biz o‘beklarda esa tanishlarga ham notanishlarga ham salom berish, o‘rnii kelganda uyga taklif qilishdek ajoyib qadiryatlarimiz mavjud. Tanish – notanishga salom berish, mehmondo‘stlik ko‘rsatish asli inson qadr – qimmatini yuqori qo‘yish natijasida kelib chiqqan odatdir.

O‘zbek millatining mehmon kutish odobi haqida qancha gapirsak ham kam, mehmonni iliq kutib olish, to‘rdan joy ko‘rsatish, mehmon qancha vaqtga tashrif buyurganini hisobga olmay bor noz – ne’matlarni dasturxonga qo‘yish bularning hammasi ayni bir millatga mansub mehmon kutish odobi. Dasturxon atrofida o‘tirganda oilaning kattasi taomlanishni boshlamaguncha ovqatga qo‘l uzatmaslik, dasturxon atrofida baland ovozda suhbatlashmaslik va kulmaslik, kattalar o‘zaro suhbatlashganida kichiklar suhbatga aralashmaslik kabi o‘ziga hos o‘zbek milliy qadirylari kabi boshqa millatlarning ham qadirylari mavjud. Dasturxonga kattalardan oldin qo‘l uzatmaslik, dasturxon atrofida baland ovozda gapirmaslik kabi odatlar e’tibor beradigan bo‘lsak boshqa millatlarda juda kam uchraydi, ular bu odatni keraksiz harkat - deb hisoblaydilar. Ham diniy, ham dunyoviy ahamiyati katta ushbu odatni. Kattalarning va kichiklarning oiladagi o‘z o‘rnini ko‘rsatib, yosh avlodga kattalarni hurmat qilishni o‘rgatadi. Shuningdek oila kattalari bo‘lmish ota – onalar ham farzandlar oldidagi burchlariga ham o‘zbek millatida katta ahamiyat berilgan.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul – abror” asarining bir necha boblari odob – axloq va ta’lim – tarbiya masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu dostonning oltinchi maqolotida odob va kamtarlikni ulug‘laydi. Ta’lim – tarbiyaga doir qimmatli fikr – mulohazalarini bayon qilib, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Tarbiyaning muhim jihatlari, bola tarbiyasi, uni o‘stirish va balog‘atga yetkazishda ota – onalarning vazifalari haqida keng fikr yuritadi.

Kanadalik tadqiqotchi Geri Dikning ta’kidlashicha, hozirda G‘arbda Alisher Navoiy asarlarini o‘qishga bo‘lgan ehtiyoj katta. Shuningdek, bobokalonlarimiz Ibn Sino, Imom al – Buxoriy, Al – Xorazimi, Imom at – Termiziylarning yoshlarga qoldirgan oltin merosi ham yosh avlod tarbiyasida katta rol o‘ynaydi[2].

Milliy liboslar, milliy va diniy qadiryatlar, urf – odatlar, an’analalar aslida jamiyatning kelajagi tarbiyasi uchun hizmat qilishi kerak. Har bir jamiyatning o‘ziga hos milliy liboslari mavjud. Dunyoning turli burchaklaridan kelgan mehmonlar o‘zbek milliy liboslariga va madaniyatiga katta ahamiyat beradi. Ular mustaqillik bayramini, navro‘z, hosil bayrami va o‘zbekona to‘ylarni guvohi bo‘ladilar. O‘zbekistondan estalik uchun atlas, do‘ppi, belbog‘, chophon va boshqa me’morchilik uslubida yasalgan estalik sovg‘alarni olib ketadilar. Qadimdan quyoshdan, issiqdan va sovuqdan asrovchi bu liboslar hozirda milliy qadiryatmizga, o‘zbek milliy liboslariga aylangan. Liboslarga tikilgan har bir naqsh ma`no anglatgan. Yosh bola kiyimlari, kelin, yoshi katta erkaklar va ayollar liboslari uchun alohida usulda naqsh solingan.

Dinlar ham dunyo aholisi urf – odatlari, rasm – rusumlariga va qadiryalariga ta’sir ko‘rsatgan. Islom dinini oladigan bo‘lsak, Qur’oni karim, Hadisi sharif, Ijmo va muayyan fatvolardagi mezonlar hamda talablar musulmon sharqi millatlari axloqiy darajasining shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan[3].

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 1991 – yilda Qurbon hayiti va 1992 - yildan Ramazon hayitlarining birinchi kunlari dam olish kuni deb belgilandi. O‘zbekiston aholisi asosan musulmonlardan tashkil topgan. Islom dinining muqaddas kitobi – Qur’oni Karimning mazmuni va Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ning hadislari o‘zbek tilida nashr etildi. Bundan tashqari boshqa din vakillari uchun ham ibodatxonalar qurildi[4].

2022 – yilda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan o‘zbek milliy umumxalq bayrami hisoblangan “Navro‘z bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida“gi qarorni imzoladi[5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. “Axloqshunoslik” darslik Abdulla Sher Toshkent – 2010 7-8-bet
2. “Dunyoni ma’naviy tanazzuldan qutqara oladigan mutafakkir” yoxud Navoiy asarlarini yoshlarga innovatsion usullarda o‘qitish. <https://yuz.uz/uz/news/>
3. “Axloqshunoslik” darslik Abdulla Sher Toshkent – 2010 12-bet
4. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning Diniy bayram “Qurban hayit”ni dam olish kuni deb e’lon qilish haqidagi 20.06.1991 221-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/-190512>
5. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish” to‘g‘risidagi 17.02.2022 134-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5866167>
6. Umidbek Adambayev. (2021). FAITH – THE CONCEPTION OF BELIEF AND STEPS TO DEVELOP IT / ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. – pp. 96-100.
7. U. Adambaev. (2021). CONFIDENCE-NONVERBAL METHODS OF ARGUMENTATION IN THE FORMATION OF THE VERB /Экономика и социум. – С.18-21.
8. Адамбаев, У. Х. (2022). ИШОНЧ-ЭЪТИҚОДНИ ШАКЛАНТИРИШДА АРГУМЕНТЛАШНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences, 3(1), 898-905.
9. Умидбек Хайтбаевич Адамбаев, (2022). Ишонч – эътиқодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири, SCIENTIFIC PROGRESS (pp. 348-351).
10. Адамбаев, У. Х., & Джораев, Д. Ў. (2022). ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТ ВА УНИ ШАКЛАНТИРИШ. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 125-134.
11. Adambayev, U. X., & Rahimberdiyev, S. U. (2022). NAVRO‘Z BAYRAMI VA UNING ETNOMADANIY AHAMIYATI. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 175-177.

12. Umid Adambayev. (2021). MILLIY O’ZLIKNI ANGLASH MILLAT TARAQIYOTINING POYDEVORI / Scientific progress. – pp. 1858-1862.
13. .U. X. Adambayev. (2022). AMIR TEMUR YURITGAN DAVLAT SIYOSATI. PEDAGOGS jurnali, 6(1), 68-71.
14. U.X. Adambayev. (2022). ETNOMADANIYATNING INSONLAR HAYOTIDA TUTGAN O’RNI. Scientific Progress 3 (3), 519-521.
15. U.X. Adambayev. (2022). ZAMONAVIY DUNYO: IJTIMOIY TARMOQLAR INSON RESURSLARINI BOSHQARADI. Scientific Progress 3 (3), 499-501.
16. U.X. Adambayev. (2022). SOG’LOM OILADA MADANIY TARBIYANING SHAKLLANTIRISH. Scientific Progress 3 (3), 502-505.
17. 12. U.X. Adambayev. (2022). JAMOATCHILIK NAZORATI VA UNI TASHKIL ETISHDA YOSHLARNING O ‘RNI VA ROLI. Academic Research in Educational Sciences, 3(4), 260-264.
18. U.X. Adambayev. (2022). XIX АСРНИНГ БОШЛАРИДАТУРКИСТОНДА ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ ЭТНОПЕДАГОГИК АҲАМИЯТИ. Academic Research in Educational Sciences, 3(4), 273-279.